



SANOAT INQILOBLARI YOHUD YANGI HUQUQIY MUNOSABATLARNING VUJUDGA KELISHI

Normirzayev Ilyosbek Ilhomjon o'g'li¹

¹ Toshkent Davlat Yuridik Universiteti Biznes huquqi magistri
ilyosbek0896@mail.ru
<https://doi.org/10.5281/zenodo.5555524>

MAQOLA TARIXI

Принято: 01 октября 2021 г.
Утверждено: 05 октября 2021 г.
Опубликовано: 08 октября 2021 г.

KALIT SO'ZLAAR

Sanoat inqilobi, qonun, huquq

ANNOTATSIYA

Bizga ma'lumki, hozirgi biz yashab turgan davrga qadar butun dunyo to'rtta sanoat inqilobini boshdan o'tkazdi va o'zkaarmoqda. Har bir sanoat inqilobi o'ziga yarasha yangi ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarni hamda u bilan birga ushbu munosabatlarni tartibga solish uchun yangi huquqiy munosabatlar doirasini yani chergalarini belgilab olishni talab etdi. Ushbu ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlarni qonuniy tartibga solinishi jamiyat rivojiga ulkan hissa qo'shdi va manfaatli bo'ldi deyishimiz mumkin.

Dastlabki sanoat inqilobi (Bug'), Buyuk Britaniyada 1700 yillarning ohirida boshlib, tezda butun Yevropa va Shimoliy Amerikaga tarqalishi ortidan temir yo'llar va bug' kuchi bilan ishlovchi paravozlar, paravozli kemalar, stanoklar va fabrikalar, mahsulotni ommaviy ishlab chiqarish texnologiyasi kabi ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarni vujudga kelishiga olib keldi. Shuningdek, ushbu munosabatlarni tartibga solish, ularning qonuniy va noqonuniy chergasini belgilash uchun ijtimoiy ehtiyoj tabiiy holatda vujudga keldi. Misol uchun, ishlab chiqarish texnologiyalarini kirib kelishi, eng birinchi navbatda mehnat sharoiti va unga bo'lgan munosabatni o'zgartirdi.

Asosan insonlar dehqonchilik, baliqchilik va boshqa agrar munosabatlarga asoslangan turmush tarzidan yirik ishlab chiqarishgan asoslangan sanoatlashgan turmush tarziga o'tishdi. Ya'ni insonlar zavodlarda mehnat faoliyatini yuritishni boshlashdi. Shuningdek, hodimlarning ish tartibini, vaqtini belgilash, ishchilarning havfsizligi kabi mehnat munosabatlarini qonuniy tartibga solish kerak ekanligi asosiy masalaga aylandi.¹ Va nihoyat, ishchilarning havfsizligi va farovonligini himoya qilish uchun 1833 yildan boshlab, to'qimachilik sanoatida muntazam ish kunlarini shakllantirish uchun birinchi "Zavod Qonunlari" (Factory Acts) tuzildi.

¹ "The Ten Hour Act of 1847." Child Labor During the Industrial Revolution. Accessed April 14,

2016. <http://industrialchildlabor.weebly.com/the-ten-hour-act-of-1847.html>



Ikkinchi, sanoat inqilobi (Elektr toki) 1870-chi yillarda deyarli bir vaqtda Buyuk Britaniya, Germaniy, AQSh va Fransiyada boshlandi bunga sabab sifatida B.Ergashevning ta'kilashicha, "Elektr tokini va ichki yonuv dvigateli ixtiro qilinishi ko'rsatiladi. Ushbu ixtirolar natijasida po'lat, elektr chiroqlar, radio, telefon, avtomobil yig'ish liniyalari (Ford), neftni ommaviy ishlab chiqarish, korporatsiyalar vujudga keldi". Bu ixtirolarning barchasi o'z navbatida yangi huquqiy munosabatlarning vujudga kelishiga turtki bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, Buyuk Britaniya Parlamenti mamlakat aholisining elektr to'kiga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida "Elektr to'ki ta'minoti hujjatlari" ni (Electricity (supply) acts, 1882 to 1919) qabul qiladi. Bu orqali mamlakatning chekka tumanlarini bir xilda elektr to'ki bilan ta'minlashni ko'zda tutdi.² Bu esa o'z navbatida, mamlakat miqyosida elektr taminotiga oid huquqiy munosabatlarni tartibga solishga asos bo'ldi.

Qarib yuz yillardan so'ng, 1960 yillarda rivojlangan davlatlar "Raqamli inqilob" nomi bilan ham ma'lum uchinchi sanoat inqilobini boshidan o'tkaza boshladi. Ushbu sanoat inqilobiga asosiy sabab sifatida, tranzistorning ixtiro qilinishi va axborotni raqamli shaklda saqlashni yaratilishi ortidan kompyuterlar, chiplar, shaxsiy kompyuterlar, email, internetlarning ixtirosini ko'rsatadi olimlar³. Bu ixtirolar insonlarning real hayotdagi ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarini raqamli dunyoga

ko'chirishga sabab bo'ldi. Lekin ushbu munosabatlarning natijasini insonlar real hayotda o'zlarida his etadilar. Misol uchun raqamli dunyodagi onlayn savdoda⁴, shartnoma tuzish, majburiyatlarni belgilash, kelishilgan mablag'ni to'lab berish onlayn tartibda amalga oshsa, real dunyodagi savdoda esa insonlarning o'zoro aloqasi orqali shakllanadi. Ushbu har ikki holatda ham ikki taraf o'zi hohlagan natijaga erishadi, sotuvchi mablag'ga, sotib oluvchi mahsulotga. Bundan tushunishimiz mumkinki, real dunyoda, savdo - sotiq, shartnoma va boshqa fuqorolik munosabatlari turli qonun va qarorlar orqali tartibga solingan bolsa, huddi shunday raqamli dunyoda ham tomonlarning majburiyatlari, ularning mulkiy, nomulkiy huquqlarini va boshqa huquqlarini raqamli dunyoda tartibga solish vujudga keldi. Yevropa parlamenti va kengashining "Raqamli bozorlar to'g'risida"gi qonunni (Digital Markets Act)⁵ raqamli sektorda raqobatbardosh va adolatli bozorlarni tartibga solishga qaratilgan qonuni ushbu yangi vujudga kelgan raqamli dunyodagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatni huquqiy tartibga solishga qaratilgan qonundir.

Bugungi kunga kelib rivojlangan davlatlar to'rtinchi sanoat inqilobini boshidan o'tkazmoqda. B.Ergashevning takidlashicha, "To'rtinchi sanoat inqilobining belgilari sifatida:

² ELECTRICITY (SUPPLY) ACTS.HC Deb 13 December 1926 vol 200 cc2733-6

³ Making the 3rd Industrial Revolution The Struggle for Polycentric Structures and a New Peer Production Commons in the Fab Lab Community Peter Troxler {2-3}

⁴ Onlayn marketing-bu ijtimoiy tarmoqlar, reklama, elektron pochta kabi onlayn kanallar orqali mahsulot yoki tovarlarni sotish jarayoni.

⁵ REGULATION OF THE EUROPEAN PARLIAMENT AND OF THE COUNCIL on contestable and fair markets in the digital sector (Digital Markets Act) (Text with EEA relevance) {SEC(2020) 437 final} - {SWD(2020) 363 final} - {SWD(2020) 364 final}



Bitcoin (Bitkoin – isoniyat tarixida birinchi kriptovalyuta) va **Blockchain** (Blokchain – munosabatlarda shaffoflikni oshirish vositasi), **Smart contracts** (Aqlli shartnomalar);

Inson potensialini yanada kuchatirish (Sun'iy Idrok (SI) / Artificial Intelligence (AI)), Mashinalar yuz-ko'rinish va rasmlarni taniy olishi, Mashinalar inson nutqni tushinishi, Chatbotlar – so'zlashuvchi virtual asistentlar Siri (iPhone); Alexa (Amazon); Erica (Bank of America), **Fintech**, **Virtual reality** va boshqalar ko'rilmogda". Ushbu rivojlanishlar insonlar hayotida bir qator yengilliklar olib kelishi va yangi ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishiga qaramasdan, ayrim muamolarni (kiber hujjmlar, virtual qallobliklar va boshqa) ham keltirib chiqarishi tabiiy holatdir. Bu esa ushbu yangi paydo bo'layotgan ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarni qonuniy tartibga solishga ijtimoiy ehtiyoj vujudga keltiradi. Misol uchun, AQSH Sun'iy Idrokni (SI) rivojlantirish 2030 yilga qadar 330 mlrd AQSH dollar ajaratgan, Kanada esa birinchi bosqichi uchun 95 mlrd AQSH dollar, Xitoy 2030 yilga qadar 142 mlrd AQSH dollar ajratgan. Xorijiy davlatlar tomonidan ishlab chiqilgan SIn'i rivojlantirish strategiyalari

maqsadlarining tahlillari ularni asosiy quyidagi yo'nalishlarda ekanligini ko'rsatadi⁶:

– ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar orqali iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish;

– SI texnologiyalarini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor investitsiyalari ulushlarini oshirish;

– ilmiy tadqiqot faoliyatlarini moliyalashtirish hajmini oshirish;

– ta'lim dasturlari, malaka oshirish va qayta tayyorlash orqali raqobatbardosh va yuqori malaka va kasbiy ko'nikmaga ega milliy kadrlarni tayyorlash;

– SI texnologiyalarni davlat boshqaruvi transformatsiyasida innovatsiyalar sifatida keng joriy etish. Bunda davlat va xususiy sherikchilik hamda innovatsion xablar va laboratoriyalarni tashkil etish mexanizmlari qo'llanilishi e'tiborga olingan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi insonlar hayotidagi ixtirolar sabab vujudga keladigan ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar shakllanishi oraqli yangi huquqiy munosabat yaralishiga sabab bo'ladi, bu esa ushbu ixtirolarning natijadorligi adolatli taqsimlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Согласно данным, представленным Brooking <http://foreignpolicy.com/2012/01/18/brookingstops-2011-think-tank-rankings>
2. Thomas Medvetz, Think Tanks in America, University of California, San Diego (University of Chicago Press, 2012)
3. Кочетков Г.Б., Супян В.Б. «Мозговые центры» в США. Наука как инструмент реальной политики // Проблемы прогнозирования 2010, Стр 53
4. Баталов Э.Я. Мировое развитие и мировой порядок (анализ современных американских концепций). – М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 2005. – 114 с

⁶ <https://oecd-opsi.org/wp-content/uploads/2019/11/AI-Report-Online.pdf>



5. Теленьга М.П. Эволюция «мозговых центров» в рамках внешней политики США (XX в.) // . Краснодар: Историческая и социально-образовательная мысль. 2016. Том 8. № 4. Часть 1
6. Чесноков С. Роль негосударственных «мозговых центров» в процессе принятия решений военно-политическим руководством США в области обороны и безопасности // Зарубежное военное обозрение. – 2007. – №5. – С. 2-6.
7. Богатов О.В. (Волгоград) Американские аналитические центры и внешняя политика США, AMERICANA, Выпуск 8, г. Волгоград, 2006 г.
8. James G. McGann, 2019 Global Go To Think Tank Index Report https://repository.upenn.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1018&context=think_tanks
9. McGann, James G., "2020 Global Go To Think Tank Index Report" (2021). TTCSP Global Go To Think Tank. Index Reports. <https://www.bruegel.org/wp-content/uploads/2021/03/2020-Global-Go-To-Think-Tank-Index-Report-Bruegel.pdf>